



XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHI QARORI

141600, Urgut tumani, Navoiy shoh ko'chasi, 104-uy, 66-483-04-42

2022 - yil «30» - dekabr

VI-95-275-7-105-K/22

Urgut tuman hokimligi

Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Urgut tumanining 2022-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-52-111-7-105-K/21-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 148-moddasiga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 02-RA 1/1-1535-sonli ko‘rsatmasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga yozilgan qo‘shma axborotini inobatga olib, xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Urgut tumanining 2022-yilgi mahalliy byudjetni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-52-111-7-105-K/21-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, navbatdan tashqari to‘qson beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Urgut tumanining 2022-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-52-111-7-105-K/21-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritilsin:

quyidagilar:

2022-yil uchun Urgut tumanining tuman byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga;

2022-yil uchun Urgut tumanining tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovalarga muvofiq matnlar quyidagi tahrirda bayon etilsin.

2. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (O.Qorayev) tuman mahalliy byudjetining 2022-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Muibov) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari (U.Kamolov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



B.Jabborov

Xalq deputatlari Urgut tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-95-275-7-105-K/22-son qaroriga
1-ilova

**2022-yil uchun Urgut tumanining tuman byudjeti daromadlari prognoz
ko'rsatkichlari**

№	Daromad turlari	Jami (ming so'mda)
Jami summa:		230 442 000,0
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	4 087 800,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	62 562 710,0
3	Aksiz solig'i jami	6 991 831,0
Shu jumladan:		
Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i		6 991 831,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 509 900,0
5	Yuridik shaxslar yer solig'i	12 275 200,0
6	Aylanmadan olinadigan soliq	12 164 700,0
7	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	4 714 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	17 422 100,0
9	Norudaqurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	800 000,0
10	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 413 000,0
11	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	71 600,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 793 459,0
13	Yig'imlar	1 049 700,0
14	Alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo	32 014 000,0
15	Mobil aloqa xizmati	18 239 000,0
16	Sigaret uchun aksiz solig'i	34 333 000,0

Xalq deputatlari Urgut tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-95-275-7-105-K/22-son qaroriga
2-ilova

**2022-yil uchun Urgut tumanining tuman byudjetidan hududiy byudjet
mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy
cheklangan miqdorlari**

№	Korsatkichlar	Jami summa (ming so'm)
Xarajatlari miqdori jami:		596 901 260,9
1	Tuman Xalq ta'limi bo'limi	20 335 437,7
2	Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi	68 402 130,3
3	Tuman Sog'liqni saqlash bo'limi	151 369 112,3
4	Tuman Madaniyat bo'limi	3 969 764,8
5	Tuman Sportni rivojlantirish bo'limi	4 663 277,2
6	Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi	1 425 993,0
7	Tuman Irrigatsiya bo'limi	1 731 464,1
8	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	2 006 513,6
9	Tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi	896 853,0
10	Tuman hokimligi Moliya bo'limi	1 421 898,0
11	Tuman hokimligi	312 924 264,0
12	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Urgut tumanidagi muassasalar	589 293,5
13	Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashi	174 340,0
14	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Urgut tuman bo'limi	8 105 291,0
15	Tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi	4 083 177,0
16	Tuman Mahalla va nuroniylarni qullab-quvvatlash bo'limi	11 064 606,0
17	Boshqa xarajatlar	3 737 845,4